

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MADANIY BOYLIK LARNING OLIB CHIQILISHI VA OLIB KIRILISHI TO'G'RISIDA

1-modda. Mazkur Qonunning maqsadi

Mazkur Qonunning maqsadi O'zbekiston xalqining madaniy merosini asrash, madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda olib chiqilishi va olib kirilishidan muhofaza qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan, ularning O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi va O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishining yagona tartibini belgilashdan, shuningdek xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat.

Oldingi tahrirga qarang.

2-modda. Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi qonunchilik

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

(2-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

3-modda. Asosiy tushunchalar

Mazkur Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

madaniy boyliklar — moddiy dunyoning milliy, tarixiy, badiiy, ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa madaniy ahamiyatga molik ko'char ashyolari;

madaniy boyliklarning olib chiqilishi — madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib o'tish;

madaniy boyliklarning olib kirilishi — madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga ularni qaytarib olib chiqish majburiyatisiz bojxona chegarasi orqali olib o'tish;

madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi — madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ularni shartlashib qo'yilgan muddatda qaytarib olib kirish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tish;

madaniy boyliklarning vaqtincha olib kirilishi — madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududiga ularni shartlashib qo'yilgan muddatda qaytarib olib chiqish majburiyati bilan bojxona chegarasi orqali olib o'tish.

4-modda. Mazkur Qonunning ta'siri ostida bo'ladigan madaniy boyliklar

Quyidagilar mazkur Qonunning ta'siri ostida bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklar;

chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida yaratilgan madaniy boyliklar;

O'zbekiston Respublikasi hududida topilgan madaniy boyliklar;

Oldingi tahrirga qarang.

muzeylarda, axborot-kutubxona muassasalarida, arxivlarda, idoraviy arxivlarda, kino-, foto-, fonotekalarda, suratlar galereyalarida va boshqa saqlash joylarida to'plangan madaniy boyliklar;

(4-moddaning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

qaysi davlatlarga mansub bo'lsa, o'sha davlatlarning vakolatli organlari roziligi bilan arxeologik, etnologik va tabiiy-ilmiy ekspeditsiyalar tomonidan qo'lga kiritilgan madaniy boyliklar;

ixtiyoriy ravishda ayirboshlashlar natijasida olingan madaniy boyliklar;

qaysi davlatlarga mansub bo'lsa, o'sha davlatlarning vakolatli organlari roziligi bilan meros, hadya sifatida olingan yoki qonuniy qo'lga kiritilgan madaniy boyliklar;

chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan madaniy boyliklar.

5-modda. Davlat organlarining madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi sohasidagi vakolatlari

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi amalga oshiradi.

(5-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-son Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi:

(5-modda ikkinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-son Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tasdiqlagan tartibda madaniy boyliklar sirasiga kiruvchi ashyolarning toifasini aniqlaydi;

madaniy boyliklarning olib chiqilishi, vaqtincha olib chiqilishi mumkinligi to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

olib chiqilayotgan va olib kirilayotgan, shuningdek vaqtincha olib chiqilayotgan va vaqtincha olib kirilayotgan madaniy boyliklarni ro'yxatga oladi;

olib chiqiladi, vaqtincha olib chiqiladi deb e'lon qilingan, shuningdek vaqtincha olib chiqilganidan keyin qaytarib olib kelingan madaniy boyliklarni ekspertizadan o'tkazishni ta'minlaydi;

Oldingi tahrirga qarang.

madaniy boyliklarning olib chiqilishi va vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi sertifikatlar beradi;

(5-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

ushlab qolingani yoki musodara qilingan madaniy boyliklarni tegishli davlat organlaridan qabul qilib oladi, ularni ekspertizadan o'tkazadi hamda ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi qonunchilikka muvofiq madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

(5-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Madaniy boyliklarni ekspertizadan o'tkazish hamda ularning olib chiqilishi va olib kirilishini nazorat qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

LexUZ sharhi

Madaniy boyliklarni ekspertizadan o'tkazish hamda ularning olib chiqilishi va olib kirilishini nazorat qilish tartibi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martda 131-son qarori bilan tasdiqlangan "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risida"gi Nizomda nazarda tutilgan (III. Bo'lim).

6-modda. Olib chiqilayotgan va olib kirilayotgan madaniy boyliklarga bo'lgan mulk huquqi

Olib chiqilayotgan va olib kirilayotgan madaniy boyliklarga davlat mulki huquqi hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mulk huquqi yuzaga kelishiga quyidagilar asos bo'ladi:

madaniy boyliklar davlat budjeti hisobiga yaratilganligi;

madaniy boyliklar yuridik va jismoniy shaxslarning o'z faoliyati hisobiga yaratilganligi;

madaniy boylik yaratilishi yoki qo'lga kiritilishiga asos bo'lgan bitimlar;
meros olish.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Ayni paytda intellektual mulk obyekti ham bo'lgan madaniy boyliklarga mulk huquqi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

(6-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

7-modda. Mulkdorning madaniy boyliklarning olib chiqilishiga bo'lgan huquqi

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Madaniy boyliklarning o'z mulkdori yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan olib chiqilishi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan beriladigan olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat asosida amalga oshiriladi.

(7-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[LexUZ sharhi](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martda 131-son qarori bilan tasdiqlangan "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risida"gi Nizomga qarang.

[LexUZ sharhi](#)

Katta badiiy, tarixiy, ilmiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega bo'lgan (kartinalar, skulpturalar va boshqalar) qadimiy buyumlar (Madaniyat ishlari vazirligi xulosasiga binoan) barter asosida eksport qilish taqiqlangan yuqori likvidli tovarlar ro'yxatiga kiradi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 13-avgustdagi 280-son qarorini ilovasiga qarang).

Muallif o'zi yaratgan, o'z mulki bo'lgan madaniy boyliklarni olib chiqishga haqli.

8-modda. O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin bo'lmagan madaniy boyliklar

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin emas:

ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklar;

davlat tomonidan muhofaza ro'yxatlari va reyestrlariga kiritilgan madaniy boyliklar;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, idoraviy arxivlar va boshqa saqlash joylarida doimiy saqlanayotgan madaniy boyliklar.

(8-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 82-moddasi.

9-modda. Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi

Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:

ko'rgazmalar tashkil etish uchun;

qayta tiklash-ta'mirlash ishlarini va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun;

teatr, konsert va boshqa san'atkorlik faoliyati munosabati bilan;

O'zbekiston Respublikasining elchixonalari va vakolatxonalarini jihozlash uchun;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

(9-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

Vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklar kreditni ta'minlash vositasi sifatida ishlatilishi yoki garov narsasi bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

10-modda. Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi shartlari

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan beriladigan sertifikat asos bo'ladi.

(10-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 13-iyundagi O'RQ-436-son Qonuni tahririda — O'R QHT, 2017-y., 24-son, 487-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi sertifikatni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

[LexUZ sharhi](#)

Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martda 131-son qarori bilan tasdiqlangan "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risida"gi Nizomga qarang.

(10-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

11-modda. Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risidagi sertifikatni olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

(11-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, idoraviy arxivlar va boshqa saqlash joylari tomonidan madaniy boyliklarni vaqtincha olib chiqish to'g'risida sertifikat olish uchun ariza berilib, unga quyidagilar ilova qilinadi:

(11-moddaning birinchi qismi birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishining maqsadlari, muddatlari va shartlari to'g'risida qabul qiluvchi tomon bilan tuzilgan shartnoma;

sug'urta xavflarining barcha hollari ta'minlangan holda vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklar mulkiy sug'urta shartnomasining sug'urta polisi (guvohnoma, sertifikat, kvitansiya);

qabul qiluvchi tomon davlat organlarining vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklarning saqlanishi va o'z vaqtida qaytarilishi xususidagi yozma kafolatlari.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Boshqa yuridik shaxslar tomonidan madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risidagi sertifikatni olish uchun arizaga ushbu moddaning birinchi qismi [ikkinchi](#) va [uchinchi xatboshisida](#) ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinadi.

(11-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Jismoniy shaxslar tomonidan madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risidagi sertifikatni olish uchun arizaga ushbu moddaning birinchi qismi [uchinchi xatboshisida](#) ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinadi.

(11-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

12-modda. Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risidagi sertifikat berishni rad etish

(12-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risidagi sertifikat quyidagi hollarda berilmaydi, agar:

(12-moddaning birinchi qismi birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi O'RQ-373-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2014-y., 36-son, 452-modda)

ushbu Qonunning [11-moddasida](#) nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa;

vaqtincha olib chiqiladi deb e'lon qilingan madaniy boyliklarning holati ularni saqlash sharoitlarini o'zgartirish imkoniyatini bermasa;

vaqtincha olib chiqiladi deb e'lon qilingan madaniy boyliklarning mulkdori aniqlanmagan bo'lsa;

madaniy boyliklar mulk huquqi to'g'risidagi nizo mavzui bo'lsa;

madaniy boyliklarni vaqtincha olib chiqishga mo'ljallanayotgan mamlakatda vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklarning saqlanishini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan tabiiy ofat sodir bo'lgan yoki boshqa holatlar yuzaga kelgan bo'lsa.

Oldingi tahrirga qarang.

(12-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

13-modda. Vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasidan vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklarni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining tegishli mamlakatdagi diplomatiya vakolatxonalarini tomonidan amalga oshiriladi.

14-modda. Vaqtincha olib kirilgan madaniy boyliklar saqlanishining kafolatlari

Davlat O'zbekistonga vaqtincha olib kirilgan madaniy boyliklarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda saqlanishini kafolatlaydi.

15-modda. Ashyolarning madaniy boyliklar niqobi ostida olib kirilishini taqiqlash

Konstitutsiyaviy tuzum va davlat mustaqilligiga putur yetkazishga, hududiy yaxlitlikni buzishga qaratilgan, urushni, terrorchilikni, zo'rvonlikni, diniy ekstremizmni, irqchilikni targ'ib qiluvchi ashyolarning, shuningdek pornografik mazmundagi materiallarning madaniy boyliklar niqobi ostida olib kirilishi taqiqlanadi.

16-modda. Madaniy boyliklarning qonunga xilof ravishda olib kirilishi va qo'lga kiritilishining oldini olish

Madaniy boyliklarga nisbatan qidiruv e'lon qilingan bo'lsa, ular keyinchalik qonuniy mulkdorlariga qaytarish maqsadida ushlab qolinishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

Boshqa mamlakatlardan qonunga xilof ravishda olib chiqilgan, o'g'irlangan yoki qonunga xilof ravishda qo'lga kiritilgan madaniy boyliklarni qo'lga kiritishning oldini olish maqsadida muzeylar, axborot-kutubxona muassasalari, arxivlar, idoraviy arxivlar va boshqa saqlash joylari ularning kelib chiqishi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi shart.

(16-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-apreldagi O'RQ-476-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

17-modda. Madaniy boyliklarni realizatsiya qilish

Olib chiqilishi mumkin bo'lmagan madaniy boyliklarni realizatsiya qilish bu boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi mumkin emasligi to'g'risida xaridor yozma ravishda ogohlantirilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy boyliklarni kimoshdi savdosiga (auksionga) qo'yish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan kelishuvga ko'ra amalga oshiriladi. Madaniy boyliklarni realizatsiya qilishda ishtirok etuvchi yuridik shaxslar o'z faoliyatini belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligini xabardor qilgan holda amalga oshiradi.

(17-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

18-modda. Madaniy boyliklar tranziti va ularni pochta jo'natmalarida yuborish

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy boyliklarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tartibida olib o'tishda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga madaniy boyliklar faqat tranzit tartibida olib o'tish maqsadida O'zbekiston Respublikasining bojxona to'g'risidagi qonunchiligida va xalqaro

shartnomalarida belgilanadigan shartlarda olib kirilayotganligidan dalolat beruvchi hujjat taqdim etiladi.

Madaniy boyliklarni pochta jo'natmalarida yuborish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

(18-moddaning birinchi va ikkinchi qismlaridagi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini" (ro'yxat raqami 2219, 18.04.2011-y.).

Oldingi tahrirga qarang.

19-modda. Madaniy boyliklarni insofli egallovchining huquqlari

(19-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 21-dekabrda O'RQ-311-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 51-son, 542-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Boshqa mamlakatlardan qonunga xilof ravishda olib chiqilgan, boshqa davlatlarda o'g'irlangan yoki yo'qolgan madaniy boyliklarni insofli egallovchi ularni qonuniy mulkdoriga qaytarishi lozim. Bunday hollarda insofli egallovchiga belgilangan tartibda kompensatsiya to'lanadi.

(19-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 21-dekabrda O'RQ-311-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2011-y., 51-son, 542-modda)

Ushbu moddaning **birinchi qismiga** muvofiq qaytarilgan madaniy boyliklar bojxona to'lovlari va boshqa yig'imlardan ozod qilinadi. Talab qiluvchi taraf qaytarishga doir boshqa xarajatlarni ko'taradi.

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 229-moddasi.

20-modda. Madaniy boyliklarni qaytarish

Davlat qonunga xilof ravishda olib chiqilgan va O'zbekiston Respublikasiga qaytarilishi lozim bo'lgan madaniy boyliklarni talab qilib olish choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan uning mustaqilligi e'lon qilingunga qadar qonunga xilof ravishda olib chiqilgan madaniy boyliklarni qaytarish to'g'risidagi talablarga nisbatan da'vo muddati tatbiq etilmaydi.

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 163-moddasi.

Qaytarilgan madaniy boyliklarning mulkdorlari ularni qaytarib olib kirishda bojxona to'lovlari va maxsus yig'imni to'lashdan ozod qilinadi.

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 299-moddasi birinchi qismining beshinchi va oltinchi bamlari.

21-modda. Madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o'tkazganlik uchun maxsus yig'im

Madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o'tkazganlik uchun maxsus yig'im to'lanadi.

Madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o'tkazganlik uchun maxsus yig'imning miqdori va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan belgilanadi.

[LexUZ sharhi](#)

Madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o'tkazganlik uchun maxsus yig'imning miqdori va uni to'lash tartibi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martda 131-son qarori bilan tasdiqlangan, Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risidagi nizomning VI bo'limida belgilangan.

22-modda. Madaniy boyliklar uchun bojxona to'lovlari

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy boyliklarning olib kirilishi va olib chiqilishida qonunchilikda belgilangan tartibda bojxona to'lovlari olinadi.

(22-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[LexUZ sharhi](#)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-apreldagi 204-son "Bojxona yig'implari stavkalari to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining davlat muzeylari, kutubxonolari, arxivlari fondlarida va davlatning madaniy boyliklarni boshqa saqlovchilarida doimiy saqlanayotgan vaqtincha olib chiqiladigan va qaytarib olib kelinadigan madaniy boyliklarni rasmiylashtirishda hamda O'zbekiston Respublikasining davlat muzeylari, kutubxonolari, arxivlari va davlatning madaniy boyliklarni boshqa saqlovchilari tomonidan ko'rgazmaga qo'yish maqsadida vaqtincha olib chiqiladigan hamda ko'rgazmalar, vernisajlar va shunga o'xshash tadbirlar o'tkazilgandan keyin qaytarib olib kelinadigan madaniy boyliklarni rasmiylashtirishda bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'implari undirilmaydi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

23-modda. Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risidagi qonunchilikni buzishda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

(23-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)

[LexUZ sharhi](#)

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining [182-moddasi](#), O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining [227¹⁶](#) va [227²¹](#)-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 4-bandining [uchinchi xatboshisi](#).

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1998-yil 29-avgust,
678-I-son

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 178-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 37-38-son, 277-modda; 2011-y., 51-son, 542-modda; 2013-y., 18-son, 233-modda; 2014-y., 36-son, 452-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)